

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ELEKTR STANSIYALARI VA TARMOQLARINI TEXNIK EKSPLUATATSIYA QILISH TARTIBIGA OID

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

O'zbekiston Respublikasining elektr stansiyalari va tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilish tartibiga oid uslubiy qo'llanma.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasining elektr stansiyalari va elektr tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilish tartibini belgilab beradi. Qo'llanma elektr energetika tizimida barqaror, uzluksiz va xavfsiz ish faoliyatini ta'minlash, elektr stansiyalari, podstansiyalar, uzatish va taqsimlash tarmoqlarining texnik holatini nazorat qilish, shuningdek ularni ekspluatatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklarning oldini olishga qaratilgan.

Qo'llanmada elektr stansiyalari va tarmoqlarining ishlash tartibi, ularni texnik xizmat ko'rsatish, sinovdan o'tkazish, profilaktika, modernizatsiya va avariya holatlarida harakat qilish bo'yicha asosiy talablar yoritilgan. Shuningdek, unda xodimlarning mas'uliyati, mehnat xavfsizligi choralari va nazorat mexanizmlari belgilab berilgan.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma energetika korxonalari, texnik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, elektr stansiyalari va tarmoqlari bo'yicha muhandis-texnik xodimlar hamda sohaga oid mutaxassislar uchun mo'ljallangan bo'lib, elektr energetika inshootlarini ishonchli va samarali ekspluatatsiya qilishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

“O‘zbekiston Respublikasining Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonuni	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi 166-sonli “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	
“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 2-apreldagi 134-sonli “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-oktabrdagi 609-sonli “O‘zbekiston Respublikasi elektr stansiyalari va tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda elektr energetika tizimini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda energiya ta'minotining ishonchligini ta'minlash yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektr stansiyalari va elektr tarmoqlarini texnik jihatdan yangilash, ularning ekspluatatsiya darajasini xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek zamonaviy boshqaruv va nazorat tizimlarini joriy etish davlat energetika siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ushbu jarayonda elektr stansiyalari va tarmoqlarining samarali ishlashi, ularning uzluksiz va xavfsiz faoliyatini ta'minlash texnik ekspluatatsiya qoidalariga qat'iy rioya etishni talab etadi. Mazkur uslubiy qo'llanma ana shu talablarni amaliy jihatdan bajarish, elektr jihozlari, podstansiyalar, uzatish tarmoqlari va boshqa energiya inshootlarini texnik holatini nazorat qilish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan.

Qo'llanma elektr energetika tizimida faoliyat yurituvchi korxonalar, muhandis-texnik xodimlar va texnik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda elektr stansiyalari va tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishning asosiy prinsiplari, texnik xavfsizlik choralari, profilaktika ishlari tartibi hamda avariya holatlarida harakat qilish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar yoritilgan.



Umumiy qoidalar

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **yagona elektr energetikasi tizimi** — elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, magistral elektr tarmoqlari, hududiy elektr tarmoqlari majmui va ularning tezkor-dispatcherlik boshqaruvi;
- **energetika obyekti** — elektr energiyasini hosil qiluvchi (ishlab chiqaruvchi), uzatuvchi va taqsimlovchi tashkilotlar, shuningdek, elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari;
- **magistral elektr tarmoqlari** — elektr energiyasini hududlararo va (yoki) davlatlararo uzatishni ta'minlash uchun foydalaniladigan elektr energiyasi tarmog'i xo'jaligi obyektlari majmui;
- **hududiy elektr tarmoqlari** — tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududi doirasidagi elektr energiyasini taqsimlovchi va iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi elektr tarmoq xo'jaligi obyektlari majmui;
- **tezkor-dispatcherlik boshqaruvi** — elektr energetikasi obyektlarining texnologik jihatdan o'zaro uyg'un ishlashini va yagona elektr energetikasi tizimi ishonchli va barqaror

ishlashining texnologik rejimini markazlashtirilgan tarzda uzluksiz boshqarish jarayoni;

- **elektr stansiyasi** — elektr energiyasini hosil qilish uchun mo'ljallangan, elektr energiyasini hosil qiluvchi qurilma va uskunalar hamda yordamchi uskunalardan tashkil topgan, tegishli infratuzilmaga ega yoki ko'chib yurish uchun mo'ljallangan (ko'chma elektr stansiya) elektr qurilmalari va uskunalari majmui;
- **elektr podstansiyasi** — elektr energiyasini qabul qilish va uzatish, taqsimlash va uning parametrlarini o'zgartirish uchun mo'ljallangan hamda transformatorlardan yoki boshqa elektr qurilmalaridan, shu jumladan, o'zgartirgichlar, boshqarish qurilmalari va yordamchi uskunalardan tashkil topgan elektr qurilmalari va uskunalar majmui;
- **elektr tarmog'i** — elektr energiyasini uzatish va taqsimlash uchun mo'ljallangan, podstansiyalar, taqsimlovchi qurilmalar va ularni birlashtiruvchi elektr uzatish tarmoqlari majmui;
- **elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlari** — elektr energiyasini uzatishni amalga oshirish uchun mo'ljallangan elektr uzatish liniyalari, transformator podstansiyalari, taqsimlash punktlari;



QOIDALARNI QO'LLASH TARTIBI

Mazkur Qoidalarining talablari idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha elektr energetikasi obyektlari, shuningdek, energetika obyektlariga taalluqli ishlarni bajaruvchi ilmiy-tadqiqot, loyihalash, qurilish-montaj, ta'mirlash va sozlash tashkilotlari hamda ularning xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.



Bilib oling!

Barcha yangidan montaj, rekonstruksiya va modernizatsiya qilingan energetika qurilmalari va uskunalari Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalarida (keyingi o'rinlarda — EQTQ) belgilangan talablar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq bajarilishi shart.

Energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarning majburiy sertifikatsiyasi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur Qoidalarda ko'zda tutilmagan elektr uskunalari va qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish sohada ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (keyingi o'rinlarda – Energetika vazirligi) bilan kelishilgan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

DIQQAT!

Qoidalar statsionar va ko'chma dizel elektr stansiyalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Maxsus texnik ekspluatatsiya qilish qoidalarining amalga kiritilishi bunga vakolatli idoralar tomonidan Energetika vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Elektr stansiyalari, qozonxonalar, elektr va issiqlik tarmoqlarining asosiy vazifasi elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'molchilarga yetkazib berishdan (keyingi o'rinlarda — energiya ishlab chiqarish) iborat.

Energetika tizimining ishi ustidan texnik boshqaruv Energetika vazirligi tomonidan, tezkor boshqaruv esa — tizim operatori va energetika tizimining tegishli korxonalarining tezkor-dispatcherlik xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir energetika obyektida uskunalar, binolar, inshootlar va kommunikatsiyalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha vazifalar tuzilmaviy bo'linmalar o'rtasida taqsimlangan bo'lishi shart.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “O‘zbekgidroenergo” AJ, shuningdek, ularning tarkibiy qismi bo‘lgan elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalar, magistral elektr tarmoqlari tashkilotlari, hududiy elektr tarmoqlari tashkilotlari hamda xususiy va davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yurituvchi elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi, uzatuvchi, taqsimlovchi tashkilotlar o‘z vakolati doirasida quyidagilarni ta’minlashlari shart:



yagona elektr energetika tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini ta’minlash va iste’molchilarning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;



kadrlarning malakasini oshirish, ilg‘or ishlab chiqarish usullarini tatbiq etish va tarqatishni;



elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilish balansini shakllantirishda ishtirok etish va elektr energiyasiga tariflar bo‘yicha takliflar kiritish;



o‘zlarining generatsiya qiluvchi quvvatlarini va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;



elektr energetikasi obyektlari va iste’molchilar (aholidan tashqari) elektr qurilmalarining texnik holati va ularni ekspluatatsiya qilish tashkil etilganligi ustidan texnik va texnologik nazoratni amalga oshirish;



oʻrnatilgan uskunalar quvvatidan foydalanish samaradorligini oshirish, energiyani tejash tadbirlarini amalga oshirish va ikkilamchi energiya resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish.

DIQQAT!

Elektr energetikasi obyektlari va isteʼmolchilar elektr va issiqlik qurilmalarining texnik holati va ularni ekspluatatsiya qilish tashkil etilishi, shuningdek, yoqilgʻi-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanish ustidan texnik va texnologik davlat nazorati Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi oʻrinlarda — “Oʻzenergoinspeksiya”) tomonidan amalga oshiriladi.

Elektrenergetikasi sohasi xodimlarining asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- isteʼmolchilar energiya taʼminotining shartnomaviy shartlariga rioya qilish;
- uzatiladigan energiyaning normal sifatini — elektr tokining meʼyorlangan chastotasi va kuchlanishini, issiqlikning bosimi va haroratini saqlab turish;

- tezkor-dispatcherlik intizomiga rioya qilish;
- uskunalar, bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilishga tayyor holatda saqlash;
- energiya ishlab chiqarishning maksimal tejamkorligi va ishonchliligini ta'minlash;
- uskunalar va inshootlarni ekspluatatsiya qilishda sanoat va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish;
- mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidolari talablarini bajarish;
- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablarini bajarish;
- ishlab chiqarishning odamlar va atrof muhitga zararli ta'sirini kamaytirish;
- energetika obyektlarining tejamkorligi, ishonchliligi, xavfsizligini oshirish, ekologik holatini yaxshilash maqsadida ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish.

DIQQAT!

Elektr energetikasi sohasidagi har bir xodim energiya ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi, mehnat intizomiga va texnologik intizomga, ish tartibi qoidalariga qat'iy rioya qilishi, o'z ish joyini toza va saranjom saqlashi shart.



ENERGETIKA OBYEKTLARIDA QURILMALAR, USKUNALAR HAMDA BINO VA INSHOOTLARNI EKSPLUATATSIYAGA QABUL QILISH

Qurilishi tugallangan barcha turdagi elektr stansiyalari (IES, GES, QES, SHES va boshqa qayta tiklanuvchi manbalar asosidagilar), shuningdek elektr va issiqlik tarmoqlari obyektlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspluatatsiyaga qabul qilinadi. Ushbu talablar obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlashdan keyin ham qo'llaniladi.

Energetika obyektlarini ishga tushirish navbatlari — qurilishning oxirgi bosqichida energetika obyekti yoki uning ma'lum elektr qurilmalariga taalluqli bo'lgan bino-inshootlar va elementlardan iborat bo'lib, majmuasi loyihaviy parametrlarda normal ishlashni ta'minlaydigan qismini o'z ichiga olishi kerak (aniq qurilmalarga bog'liq bo'lmagan holda). Majmuga asosan uskunar, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish qurilmalari, tegishli binolar (yordamchi, maishiy, transport, ta'mirlash, ombor), dispetcherlik va texnologik boshqaruv vositalari (DTBV), aloqa vositalari, muhandislik kommunikatsiyalari, umumiy ovqatlanish va tibbiy punktlar hamda obodonlashtirilgan hududlar kiritilishi mumkin. Ishga tushirish loyihasida jami ishchi-xodimlar uchun sanitariya-gigiyena, yong'in xavfsizligi hamda suv va atmosfera muhofazasi talablarini o'z ichiga olgan yo'riqnomalar ta'minlangan bo'lishi shart. Loyihalar loyihalovchi tomonidan belgilangan muddatlarda tayyorlanib, buyurtmachi va bosh pudratchi bilan kelishilgan

holda, tizimlararo ahamiyatga ega obyektlar uchun esa “Energiya” muvofiqlashtiruvchi dispatcherlik markazi bilan kelishilgan va tasdiqlangan bo’lishi lozim.

Energetika obyektni ekspluatatsiyaga qabul qilishdan oldin quyidagi ishlar bajarilishi shart:

- uskunalarning individual sinovlari hamda asosiy va yordamchi uskunalarning sinov tarzida ishga tushirilishi bilan tugaydigan energobloklar uchun alohida tizimlarning funksional sinovlari;
- uskunalarning kompleks sinab ko’rilishi.

Qurilish va montaj qilish davomida yo’l qo’yilgan nuqsonlar va kamchiliklar, shuningdek, yakka tartibda va funksional sinovlar jarayonida aniqlangan uskunalarning nuqsonlari qurilish-montaj tashkilotlari va ishlab chiqaruvchi zavodlar tomonidan kompleks sinovlar boshlangunga qadar bartaraf etilgan bo’lishi shart.

Energobloklarning sinov tarzida ishga tushirilishi buyurtmachi tomonidan kompleks sinovlargacha o’tkazilishi lozim. Sinov tarzida ishga tushirishda uskunalar va texnologik sxemalarning ishlash qobiliyati, ularni ekspluatatsiya qilish xavfsizligi tekshirilishi, barcha nazorat va boshqaruv tizimlari, shu jumladan, avtomatik rostlash tizimlari, himoya va blokirovka tuzilmalari, signalizatsiya tuzilmalari va nazorat-o’lchov asboblari tekshirish va sozlash amalga oshirilganligi, uskunalarning kompleks sinab ko’rishga tayyorligi tekshirilishi lozim.

Sinov tarzida ishga tushirishdan oldin energetika obyektni ishonchli va xavfsiz ekspluatatsiya qilish uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo'lishi kerak:



ekspluatatsiya qiluvchi va ta'mirlovchi xodimlar tayyorlanishi va o'qitilishi (bilimlari sinovdan o'tkazilishi), ekspluatatsiya qilish yo'riqnomalari, mehnat muhofazasi, mehnatni muhofaza qilish yo'riqnomalari, tezkor sxemalar, hisobga olish va hisobot bo'yicha texnik hujjatlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;



yoqilg'i, materiallar, asboblarni va ehtiyot qismlarning zaxirasi tayyorlanishi;



aloqa tarmog'i bilan birga DTBV, yong'in haqida avtomatik ravishda xabar berish va o'chirish qurilmalari, avariya yoritish, ventilyatsiya tizimlari ishga tushirilishi;



nazorat qilish va boshqarish tizimlari montaj qilingan hamda soz holatda bo'lishi;



energetika obyektni ekspluatatsiya qilishga tayyorligi to'g'risida belgilangan tartibda "O'zenergoinspeksiya"dan, agar boshqa nazorat organlari nazoratidagi obyektlar (qurilmalar) ishga tushirilayotgan bo'lsa, ushbu organlardan ham tegishli xulosa yoki ruxsat olinishi.

Kompleks sinovlarni buyurtmachi o'tkazishi lozim. Kompleks sinovlarda asosiy agregatlar va barcha yordamchi uskunalarning birgalikda yuklama ostida ishlashi tekshirib ko'rilishi kerak.

Energetika qurilmasi tarmoqqa ulangan yoki unga yuklama berilgan vaqt — energetika qurilmasini kompleks sinab ko'rishning boshlanish vaqti hisoblanadi.

Uskunalarni loyihada ko'zda tutilmagan sxemalar bo'yicha kompleks sinab ko'rish taqiqlanadi.

Elektr stansiyalarining uskunalarini kompleks sinash issiqlik elektr stansiyalari uchun asosiy yoqilg'ining (gaz-turbina qurilmalari uchun — tabiiy gazning (keyingi o'rinlarda — gazsimon yoqilg'i) loyihaviy ko'rsatkichlarida, gidroelektr stansiyalari uchun ishga tushirish obyektida ko'zda tutilgan suvning sarfi va bosimida 72 soat mobaynida asosiy uskunalarni nominal yuklama bilan normal va uzluksiz ishlatish, shuningdek, ishga tushirish majmuasiga kiritilgan barcha yordamchi uskunalarni doimiy yoki navbatma-navbat ishlatish orqali amalga oshiriladi.



Bilib oling!

Yangi, rekonstruksiya va modernizatsiya qilingan elektr tarmoqlariga kuchlanish berishdan oldin ularning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi "O'zenergoinspeksiya" tomonidan ko'rib chiqilgan va ekspluatatsiya qilishga tayyorligi tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Issiqlik tarmoqlarida uskunalarining yuklama ostida 24 soat davomida ishga tushirish majmuasida ko'zda tutilgan nominal

bosim bilan normal va uzluksiz ishlashi kompleks sinab ko'rish o'tkazilganligining tasdig'i hisoblanadi.

Gaz-turbina qurilmalari (keyingi o'rinlarda — GTQ) uchun bundan tashqari o'n marta, GESning gidroagregatlari uchun esa uch marta muvaffaqiyatli avtomatik ishga tushirish kompleks sinab ko'rishning majburiy sharti hisoblanadi.

Kompleks sinab ko'rishda loyihada ko'zda tutilgan nazorat-o'lchov asboblari, blokirovka, signalizatsiya va masofadan boshqarish, himoya va rejim sozlanishini talab qilmaydigan avtomatik rostlash tuzilmalari ulangan bo'lishi shart.



ENERGETIKA TASHKILOTLARI ISHINING SAMARADORLIGINI NAZORAT QILISH

Barcha energetika tashkilotlarida ishning yakuniy natijalarini yaxshilash maqsadida quyidagilar ta'minlangan bo'lishi shart:

- energiya eltuvchilarning sarflari va texnologik ko'rsatkichlari o'lchovlarining talab darajasidagi aniqligi;
- nazorat-o'lchov asboblari va axborot-o'lchov tizimlarining ko'rsatkichlariga asoslangan holda uskunalarning ishlash ko'rsatkichlarini belgilangan shakllar bo'yicha (smenalik, sutkalik, oylik va yillik) hisobga olish;
- uskunalarining holatini, uning ishlash rejimlarini, yoqilg'ini tejash zaxiralarini, o'tkazilayotgan tashkiliy-texnik

tadbirlarning samaradorligini baholash uchun texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili;

- parametrlar va ko'rsatkichlarning amaldagi qiymatlari energetik xarakteristikalar bo'yicha belgilangan qiymatlardan farqlanishi sabablarini aniqlash maqsadida smena, sex ishining natijalarini xodimlar orasida (kamida bir oyda bir marta) muhokama qilish, ishdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, eng yaxshi smenalar va alohida xodimlarning ish tajribasi bilan tanishtirish;
- uskunalarning ishlash ishonchliligi va tejamkorligini oshirish, yoqilg'i-energetika resurslarining nooqilona sarflari va yo'qolishlarini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.



Bilib oling!

Energetika sohasida asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar o'rnatilgan bo'lishi kerak:



ishlab chiqarilgan va uzatilgan elektr (aktiv va reaktiv) va issiqlik energiyasining miqdori;



ishchi elektr quvvati va o'rnatilgan quvvatdan foydalanish samaradorligining ko'rsatkichlari;



avariyalar, ishlamay qolishgacha bo'lgan ishlash muddati;



elektr va issiqlik energiyasining tannarxi;



energetika tizimi bo'yicha foyda;



uzatilgan elektr va issiqlik energiyasi uchun shartli
yoqilg'ining solishtirma sarfi.

Quvvati va issiqlik ishlab chiqarish unumdorligi kamroq bo'lgan elektr stansiyalari va tuman qozonxonalari bo'yicha xarakteristikalarini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi energetika obyektining yuqori turuvchi tashkiloti tomonidan belgilanishi shart.



Bilib oling!

Yoqilg'i va suvning energetik xarakteristikalarini va solishtirma sarfi jadvallari, shuningdek, elektr stansiyasi uskunalarining har bir guruhi bo'yicha uzatilgan elektr energiyasi uchun tegishli ekologiya me'yorlari kamida 5 yilda bir marta, shuningdek, elektr stansiyasining texnik jihatdan qayta jihozlanishi va rekonstruksiya qilinishi, ishlatiladigan yoqilg'ining turi yoki markasi o'zgarishi natijasida elektr va issiqlik energiyasini uzatishda yoqilg'ining solishtirma sarflari tegishli 2 va 1 foizdan ortiq o'zgarganida qayta ko'rib chiqilishi lozim.



Qonunchilik talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ELEKTR STANSIYALARI VA TARMOQLARINI TEXNIK EKSPLOATATSIYA QILISH TARTIBIGA OID

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.